

TERGOV FAOLIYATIDA SHAXSNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH KAFOLATLARI.

Qonun (O'RQ-1022-son, 28.01.2025 y.) bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, tergov sudyalari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritish bosqichida protsessual qarorlarga sanksiya berish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish masalalarini qonunchilikda belgilash maqsadida tergov sudyalarining vakolatlari jumlasiga kiritilgan ishlarni ko'rib chiqish asoslari hamda tartibini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, tergov sudyasining vakolatlari belgilanib, tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Shuningdek, tintuv o'tkazish to'g'risida iltimosnama qo'zg'atish hamda uni ko'rib chiqish asoslari belgilandi.

Bunda, tintuv o'tkazish uchun asoslar mavjud bo'lган taqdirda prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tintuv o'tkazish to'g'risida iltimosnama qo'zg'atish haqida uni o'tkazish uchun asoslarni bayon etgan holda qaror chiqaradi.

Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishni, ular orqali uzatiladigan axborotni olishni amalga oshirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish asoslari belgilandi.

Bundan tashqari, mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish tartibi belgilandi.

Bunda, mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnama surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha.

Oltinsoy tuman sudining

tergov sudyasi I.Ergashev.